



O‘ZBEKISTON SANOAT ISHLAB CHIQARISHI VA HUDUDIY TAFOVUTLAR: 2018–2025 YILLAR STATISTIKASI ASOSIDA TAHLIL

Ilmiy rahbar To‘rayeva Zilola

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Ernazarova Kamola Ulug‘bekovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarishi va hududlararo tafovutlar 2018–2025 yillar davomida Stat.uz rasmiy ma’lumotlari asosida tahlil qilinadi. Maqolada sanoat tarmoqlarining umumiy ishlab chiqarish hajmi, yillik o‘sinh sur’atlari va hududlar kesimida farqlar batafsil ko‘rsatilgan. Shuningdek, mamlakatning turli hududlarida ishlab chiqarish samaradorligi va sanoat infratuzilmasi o‘rtasidagi tafovutlar tahlil qilinadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Toshkent, Farg‘ona va Samarqand kabi hududlar sanoat ishlab chiqarishida yetakchi bo‘lib, yuqori o‘sinh sur’atlarini qayd etmoqda. Shu bilan birga, ba’zi hududlarda, xususan Qoraqalpog‘iston, Sirdaryo va Navoiyda ishlab chiqarish pastroq bo‘lib, hududlararo tafovutlar mavjud. Maqolada ishlab chiqarish hajmini oshirish, sanoatni modernizatsiya qilish va hududlararo tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan tavsiyalar ham berilgan. Tadqiqot natijalari sanoatning milliy iqtisodiyotdagi rolini aniqlash va kelgusida siyosat ishlab chiqishda foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, maqolada sanoat tarmoqlarining ichki resurslardan samarali foydalanishi, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash masalalari ham muhim ahamiyatga ega ekani ko‘rsatildi.

Kirish

Hozirgi kunda sanoat ishlab chiqarishi har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanch tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sanoat sohasining rivojlanishi ishlab



chiqarish hajmining oshishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va aholi daromadlarining ko‘payishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli sanoat ishlab chiqarishining holatini statistik ma’lumotlar asosida o‘rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sanoatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va hududlarda sanoat zonalarini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada sanoat ishlab chiqarish hajmi yil sayin oshib bormoqda, biroq bu o‘sinh barcha hududlarda bir xil darajada emas. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Farg‘ona va Samarqand kabi hududlarda sanoat ishlab chiqarishi nisbatan yuqori sur‘atlarda rivojlanmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda sanoat infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, investitsiyalar hajmining kamligi va logistika muammolari sanoat ishlab chiqarishining sekin rivojlanishiga olib kelmoqda. Bu esa hududlararo iqtisodiy tafovutlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shu munosabat bilan, 2018–2025 yillar davomida O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarishining rivojlanish holatini statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilish, hududlar kesimida mavjud farqlarni aniqlash va ularning sabablarini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu tadqiqot sanoat ishlab chiqarishining umumiy tendensiyalarini aniqlash va hududiy rivojlanishni yanada muvozanatlashtirish bo‘yicha amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi va hududlar bo‘yicha tafovutlarini o‘rganish iqtisodiyot fanida dolzarb masalalardan biridir. Ushbu mavzuda yozilgan ilmiy adabiyotlar va rasmiy manbalar sanoat tarmoqlarining iqtisodiy mohiyati, ishlab chiqarish hajmi va hududiy rivojlanish jihatlarini yoritadi. Statistik



ma'lumotlarga asoslangan tahlillar hududlararo tafovutlarni aniqlash va ularni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi manba sifatida Ortiqov A. muallifligidagi **“Sanoat iqtisodiyoti”**¹ darsligini ko'rsatish mumkin. Ushbu kitob sanoat tarmoqlarining tarkibi, ishlab chiqarish jarayonlari va samaradorlik masalalarini puxta yoritadi. Muallif sanoat ishlab chiqarishining milliy iqtisodiyotdagi o'rnini, ishlab chiqarish hajmini oshirish omillari va hududiy tafovutlarning sabablari haqida batafsil ma'lumot beradi. Kitobda investitsiyalar, infratuzilma va hududiy resurslar sanoat rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi alohida tushuntirilgan. Shu bois, ushbu darslik sanoat ishlab chiqarishining hududiy tafovutlarini nazariy jihatdan tushunishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchi manba — **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining** yillik statistik to'plamlari hisoblanadi. Ushbu manba sanoat ishlab chiqarishining real holatini aks ettiruvchi rasmiy ma'lumotlarni beradi. Nashrlarda ishlab chiqarish hajmi, tarmoqlar kesimidagi o'sish sur'atlari va hududlararo tafovutlar raqamlar orqali ko'rsatilgan. Statistik ma'lumotlar Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Farg'ona va Samarqand kabi yetakchi hududlar bilan birga, sekin rivojlangan hududlarni ham aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, investitsiya hajmi, infratuzilma va logistika muammolari kabi omillar sanoat rivojlanishining hududiy farqlariga qanday ta'sir etishini tushuntiradi.

Umuman olganda, mazkur ikki manba bir-birini to'ldirgan holda sanoat ishlab chiqarishining iqtisodiy va hududiy tahlilini chuqur anglash imkonini beradi. “Sanoat iqtisodiyoti” darsligi nazariy asoslarni yoritgan bo'lsa, rasmiy statistika to'plamlari sanoatning real ko'rsatkichlarini baholashda yordam beradi. Shu sababli,

¹ <https://arm.tipu.uz/index.php?newsid=730>



O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishi va hududiy tafovutlarini tahlil qilishda ushbu manbalar asosiy ilmiy manba sifatida ishlatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishining rivojlanish holati va hududlararo tafovutlarini o'rganish uchun statistik ma'lumotlarga asoslangan yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – 2018–2025 yillar davomida sanoat ishlab chiqarishining umumiy tendensiyalarini aniqlash, hududiy tafovutlarni aniqlash va ularni kamaytirish yo'llarini o'rganishdir.

Tadqiqot metodologiyasi ikki asosiy komponentdan iborat: **Nazariy asoslar** – Ortiqov A.ning “Sanoat iqtisodiyoti” darsligi asosida sanoat tarmoqlarining iqtisodiy mohiyati, ishlab chiqarish samaradorligi va hududiy rivojlanish jihatlari o'rganildi. Nazariy yondashuv sanoat ishlab chiqarishining tarkibi, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va hududlar kesimidagi tafovutlarni tushunish imkonini berdi.

Empirik tahlil – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan chop etilgan yillik statistik to'plamlar asosida sanoat ishlab chiqarish hajmi, tarmoqlar bo'yicha o'sish sur'atlari va hududlar kesimidagi farqlar tahlil qilindi. Tadqiqotda asosan quyidagi statistik ko'rsatkichlar ishlatildi:

- Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)
- Ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha tarkibiy ulushlar
- Hududlar kesimidagi o'sish sur'atlari
- Investitsiya hajmi va ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari

Tahlil jarayonida hududlararo farqlarni aniqlash uchun **solishtirma tahlil va indekslar** qo'llanildi. Masalan, Toshkent shahri va viloyatlar, Farg'ona, Samarqand kabi yetakchi hududlar bilan boshqa hududlar o'rtasidagi ishlab chiqarish hajmi va



o'sish sur'atlari solishtirildi. Shu bilan birga, sanoat infratuzilmasi, investitsiya darajasi va logistika muammolari kabi omillar tadqiqotda baholandi.

Ushbu metodologiya tadqiqotga ilmiy asos beradi, sanoat ishlab chiqarishining umumiy tendensiyalarini aniqlashga, hududiy tafovutlarni tahlil qilishga va hududlararo barqaror rivojlanish bo'yicha amaliy xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

Tahlil va natijalar

2025 yilda O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishi barqaror o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda. Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yil boshidan sentyabr oyigacha oshib borgan, bu milliy iqtisodiyotning rivojlanishidan darak beradi. Sanoat hajmining o'sish sur'ati 2024 yilning mos davriga nisbatan 6–7% atrofida bo'ldi.

Hududlar kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, sanoat ishlab chiqarishining yetakchi hududlari Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Navoi, Farg'ona va Samarqand bo'lib, bu hududlarda ishlab chiqarish hajmi yuqori va o'sish sur'atlari milliy o'rtachadan ancha yuqori. Masalan, Navoi viloyatida sanoat ishlab chiqarishining o'sish indeksi 111% atrofida bo'lib, bu yirik sanoat korxonalari va ishlab chiqarish quvvatlarining rivojlanishi bilan izohlanadi. Toshkent shahri va viloyatida esa ishlab chiqarish hajmi ham yuqori bo'lib, ishlab chiqarish tarmoqlarining xilma-xilligi va infratuzilmaning rivojlanganligi hisobiga o'sish sur'atlari sezilarli.

Boshqa hududlarda sanoat ishlab chiqarishining pastroq bo'lishi seziladi. Masalan, Sirdaryo, Surxondaryo va Qoraqalpog'iston hududlarida ishlab chiqarish hajmi milliy o'rtachadan past, bu hududlarda investitsiya hajmi cheklanganligi, sanoat infratuzilmasi va logistika tizimining rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Shu bilan birga, hududiy tafovutlar per capita ko'rsatkichlarida ham aks etadi. Masalan,



Navoi, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida aholi boshiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish qiymati yuqori bo'lsa, janubiy va markaziy hududlarda pastroq.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi ham hududlar bo'yicha farqlanadi. Toshkent va Navoi kabi hududlarda kimyo, elektrotexnika va mashinasozlik tarmoqlari rivojlangan bo'lsa, boshqa hududlarda yengil sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ustunlik qiladi. Bu hududiy ixtisoslashuv sanoat rivojlanishining umumiy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2025 yil statistikasiga ko'ra, O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishining barqaror o'sishi davom etmoqda, ishlab chiqarish hajmlari oshmoqda va hududlararo tafovutlarni kamaytirish imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, pastroq rivojlangan hududlarda sanoat infratuzilmasini mustahkamlash, investitsiyalarni jalb qilish va kichik ishlab chiqarish sektorlarini qo'llab-quvvatlash orqali sanoatni yanada muvozanatlashtirilgan rivojlantirish mumkin.

O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishi (hududlar kesimida, 2025)

Hudud	Ishlab chiqarish hajmi trln so'm	Izoh
O'zbekiston bo'yicha jami	773,8	Yanvar-sentyabr 2025 (stat.uz)
Toshkent shahri	148,9	Yetakchi hudud, sanoat quvvat- lari rivojlangan
Navoiy viloyati	137,3	Katta sanoat korxonalari mavjud
Toshkent viloyati	118,6	Ishlab chiqarish va infratuzilma yaxshi
Andijon viloyati	73,4	Mahalliy ishlab chiqarish o'sishi sezilarli
Farg'ona viloyati	44,9	Tayyor mahsulot ishlab chiqarish ustun
Samarqand viloyati	41,1	Sanoat rivojlanmoqda, lekin hududiy tafovut bor
Qashqadaryo viloyati	37,2	Energetika sektori ulushi katta



Xulosa va takliflar

2025 yilning yanvar–sentyabr oylariga oid ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishi barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolmoqda. Hududlar bo'yicha farqlar mavjud: Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyati yetakchi pozitsiyada bo'lsa, Surxondaryo, Sirdaryo va Qoraqalpog'istonda ishlab chiqarish pastroq. Umumiy ishlab chiqarish hajmi 773,8 trillion² so'mni tashkil etib, sanoatning milliy iqtisodiyotdagi ulushi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Hududlararo tafovutlarni kamaytirish va sanoatni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

1. **Hududiy investitsiyalarni oshirish** – past rivojlangan hududlarda yangi sanoat korxonalari va ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish.
2. **Infratuzilmani rivojlantirish** – transport, energetika va kommunal xizmatlarni modernizatsiya qilish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.
3. **Texnologik modernizatsiya** – mavjud korxonalarda yangi texnologiyalar joriy etish.
4. **Ishchi kuchini malakali qilish** – hududiy kadrlar tayyorlash dasturlari orqali yuqori malakali ishchi kuchini shakllantirish.
5. **Statistik monitoringni kuchaytirish** – hududlar bo'yicha ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini muntazam kuzatish va tahlil qilish, siyosat va strategiyalarni yanada samarali ishlab chiqish.

Ushbu tavsiyalar amalga oshirilsa, sanoat ishlab chiqarish sur'atlari yanada oshadi, hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar kamayadi va milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanadi.

² <https://stat.uz/uz/>



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ortiqov A. **Sanoat iqtisodiyoti**. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019. – 320 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. **Yillik statistik to‘plamlar 2018–2025**. – Toshkent, 2025.
3. Karimov I. **Hududiy rivojlanish va sanoat tarmoqlari**. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020. – 210 b.
4. Rahmonov S. **Milliy iqtisodiyotda sanoat ishlab chiqarishining roli**. – Toshkent: Iqtisodiyot va menejment, 2021. – 145 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari. **Sanoatni rivojlantirish va hududlararo tafovutlarni kamaytirish chora-tadbirlari**, 2018–2025. – Toshkent, 2025.
6. Tashkent State University of Economics. **Sanoat iqtisodiyoti va hududiy rivojlanish bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami**, 2019–2024. – Toshkent, 2024.